

TILNING FUNKSIONAL SHAKLLARI VA ULARNING TASNIFI MASALARINING NAZARIY TAHLILI

Mahmudova Guliruxsor Bahriiddin qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

mahmudovaguliruxsor1995@mail.ru

+99897-214-48-08

Annotatsiya: Maqolada tilning funksional shakllari va ularning tasnifi masalalarining nazariy tahlili. Hamda nutq uslublari inson faoliyatining biror bir sohasiga oid umumxalq tilining turli xil ko'rinishlari va ular qanday doirada ishlatalishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Til, nutq, shakl, tasnif, nutq uslublari, so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub, til vositalari.

Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, nutqning ma'lum bir uslublari o'zaro farqlanadi. Tilshunoslikda tilning vazifaviy shakllari yoki nutq uslublari nomlari bilan yuritiladigan adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga mansub nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi hisoblanadi. Ya'ni ular tilning aloqa jarayonida qo'llanish shakllarini ifodaydi. Nutq uslubi haqidagi tilshunos olim A.J. Omonturdiyev fikr bildirib quyidagi mulohazani aytib o'tadi: "Nutq uslubini ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan tizimidan iborat deyish mumkin". Bundan ko'rinish turibdiki, nutq uslublari biror bir fikrning ma'lum soha doirasidagi ko'rinishi sanaladi. Nutq stillari ifoda vositalari sistemasining muayyan aloqa doirasida maqsadga muvofiq tanlash natijasida tarixan tashkil topgan nutq

ko'rinishlaridir¹. Nutq uslublari til taraqqiyotining ma'lum davrida asta-sekin shakllanadi va o'zgarishlarga uchraydi. Nutq uslublari tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq ekan. Shu bois ular vazifaviy uslublar deb yuritiladi². Ya'ni nutq uslublari tilning ma'lum vaziyatga, sohaga moslashgan o'ziga xos shakllari bo'lib, ularda nutqning muayyan vazifasi qaror topadi. Shu sababdan ham ular tilning vazifaviy shakllari degan nom bilan ham yuritiladi.

Nutq uslublari inson faoliyatining biror bir sohasiga oid umumxalq tilining turli xil ko'rinishlaridir va ular qanday doirada ishlatilishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. So'zlashuv uslubi
2. Rasmiy uslub
3. Ilmiy uslub
4. Publitsistik uslub
5. Badiiy uslub

Har bir nutq stilining o'ziga xos ishlatish o'rni, holati, vaqtini va makoni mavjud. Nutq stillarining har biri alohida yagona bir sistemaning tashkil qiladi. Nutq stilining bir-biriga bog'liq elementlar sistemasini tashkil qilishi aloqa-aratashuv quroli bo'lgan tilning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi³. Bu fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, nutq uslublarining har biri bir sistemaning tashkil etgan holda, ularning vazifasi tilnin ijtimoiy vazifasidan kelib chiqib qaror topadi. Shunga ko'ra har bir uslubning muayyan vazifasi mavjud. Masalan, so'zlashuv uslubi insonlarning kundalik muloqotiga xizmat qilsa, rasmiy nutq insonlarning qonun-hujjatlar bilan bevosita ishlash jarayonida o'z faolligini ko'rsatadi. Funksional stillarni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga

¹ Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent. “O'qituvchi”, 1983 9-bet

² Omonturdiyev A.J. Abduraimova Sh.I. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. –Toshkent, 2016 36-bet

³ Shomaqsudov A. va b. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, “O'qituvchi”, 1983 10-bet

www.pedagoglar.uz

16-to'plam mart 2023

qarab belgilanadi⁴. Ya'nikim, har bir uslubning o'z o'rni, ishlatilish doirasi va ahamiyati bor. Shu bois tilshunoslikda funksinal stillar ma'lum darajada o'rganilgan va tadqiqot mavzusi sifatida obyekt bo'lgan.

O'zbek tilshunosligining alohida bir sohasi sanaladigan stilistika - uslubshunoslik til birliklarining aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda qo'llanishi, nutqni tashkil qilish qonuniyatları, til tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma'no nozikliklarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Stilistika – tilda mavjud bo'lgan barcha vositalar – leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma'lum bir tipdag'i forma, so'z va konstruksiyalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi, Shunga ko'ra, stilistika so'z san'ati, ifoda vositalar haqidagi alohida bir fandir. “Stilistika tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, u turli stillarni, emotsionallik, modallik vositalarini, badiiy vositalarni, grammatik formalarning stilistik xususiyatlaarini, yozuvchi qalamiga xos badiiy, leksik, Grammatik xususiyatlarni va shu kabi tilning lingvistik-badiiy elementlarini tahlil va tadqiq etadi ”⁵.

Tildagi ana shunday muammolar bilan shug'ullanadigan uslubshunoslikning quyidagi yo'naliishlari mavjud:

Tilning leksik resurslarini o'rganuvchi yo'naliish.

Funksional stilistika – vazifaviy uslubshunoslik.

Badiiy adabiyot uslublari.

Amaliy uslubshunoslik.

Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar. Tilimizdagи vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi,

⁴ Shomaqsudov A. va b. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1983 13-bet

⁵ M.Sodiqova. Fe'l stilistikasi. Toshkent. "Fan" nashriyoti, 1975 6-bet

sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishini taqozo qiladi.

O'zbek tili uslublarini vazifaviy jihatdan tasnif qilish ikki omilga – til va tildan tashqarida bo'lgan omillarga tayanadi. Bu uslublarning N.A.Baskakov, A.Sulaymonov,A.Shomaqsudov,G'.Abdurahmonov,B.O'rino boyevlar tomonidan tavsiya etilgan variantlari mavjud. Nutq uslublari haqida bilimga ega bo'lish o'quvchilarga ona tilimizning nutq jarayonidagi imkoniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi. Badiiy uslub inson hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu uslub barchaga barobarligi, o'quvchiga va tinglovchiga emotsional ta'sir etishi bilan boshqa uslublardan farq qilib turadi. Bu uslubda muallif tilning barcha leksik, grammatik vositalaridan foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi mumkin. Boshqa uslublarning materiallaridan badiiy uslubda bemalol foydalanish mumkin. Til meterialini qamrab olish imkoiniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lug'aviy birliklarning hamda boshqa vaizfaviy uslub unsurlarining ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga- estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo'ladi. Badiiy uslubning yana bir xususiyati shundaki, adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga, unda o'zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi. Bulardan ko'rinish turibdiki, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqeal- hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi. Obrazlilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Badiiy uslub so'z sa'natiga, timsoliy fikrlash sohasiga oid va funksional jihatdan chegaralangan emas. Uning mazmun doirasining nihoyatda keng va u timsollar, badiiy to'qima, yozuvchi fantaziyasini natijasida yuzaga keladi. Badiiy uslubda proza, poeziya va dramaturgiya asarlar yaratiladi. Badiiy uslub timsol, ijod va shaxs munosabatida yuzaga keladi. Badiiy uslubda umumxalq tili va adabiy

tilning barcha qatlamiga mansub so'z va iboralar keng va faol ishlatiladi hamda estetik ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Badiiy adabiyot tili yoki badiiy uslub adabiy tilda alohida o'rinni tutadi. Badiiy uslubda xalq tilidagi hamma vositalardan erkin foydalaniladi. Badiiy uslubning asosiy belgilari sifatida quyidagilrni sanab o'tish darkor:

1. Turli tasviriy vositalar, chunonchi, sifatlash, qiyoslash, mubolag'a, kinoya, o'xshatish va hokazolar qo'llanadi:

Bulutning orasidan

Quyosh kulib qaraydi,

Majnuntolning yuvilgan

Sochlarini taraydi (E. Vohidov).

Shoir bu misralarda badiiy tasvirning jonlantirish usulidan foydalanib, insonga xos kulish (kulib qaraydi), tarash (sochlarini taraydi) harakatlarini quyoshga nisbatan ishlatadi.

2. Til vositalaridan erkin foydalaniladi. Badiiy asarlarda adabiy tilga xos til birliklari, shuningdek, adabiy tildan tashqarida bo'lган sheva, oddiy nutq, jargon kabilarga xos so'zlar bo'lishi ham mumkin. Bu uslubda muallifning o'z bayoni adabiy til me'yorlarida bo'ladi. Ammo asarda ishtirok etuvchilarining nutqida ularning xususiyatlarini ifodalash uchun adabiy tilda bo'lмаган til birliklaridan ham foydalaniladi. Masalan, yozuvchi Abdulla Qahhor "Bemor" hikoyasida farg'onalik yosh go'dak nutqini shunday ifodalagan: Xudoyo, ayamdi daydiga davo beygin.

Badiiy asarda tasvirlanayotgan davrning ruhni aks ettirish uchun eskirgan va yangi paydo bo'lган so'z va iboralardan ham foydalaniladi.

3. Sonlar raqam bilan emas, so'z bilan yoziladi.

Til vositalarini qo'llashdagi ana shu keng qamrovlilik bo'lishi bilan birga, bu uslub doirasida ularni qo'llashning ma'lum me'yorlari ham amal qiladiki, fonetik, grammatik, leksik va frazeologik xususiyatlar tarzida ko'zga tashlanadigan ana shu me'yorlar uni boshqa vazifaviy uslublardan chegaralash imkonini beradi.

Shuningdek, badiiy uslubda, xususan poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan qaro, yamon, yaro, oshno, talosh singari so'zlar ham ishlatilaveradi. O'zbek tili so'z turkumlarining grammatik shakllari turli adabiy, tarixiy hamda dialektal variantlarga ega bo'lib, ular hozirgi adabiy til me'yori nuqtai nazaridan bir tomondan qo'llanish chastotasiga ko'ra faol yoki aksincha bo'lsa, ikkinchi tomondan ularda vazifaviy-uslubiy chegaralanish ham sezilib turadi. Bu xususiyatlar so'z yasovchi hamda ko'plik, egalik, kelishik, daraja, shaxs-son, zamon, mayl, nisbat kabi ma'nolarni ifoda etuvchi affikslarning nutqdagi ishtirokida, yordamchi so'zlarning turlicha ko'rinishlari va variantlarida namoyon bo'ladi. Ularning ma'lum qismida badiiy uslubga xoslanganlik mavjud. Masalan, -lar kesim tarkibida kelgan paytda hurmat (Dadam keldilar), kinoya, piching (Mulla Eshmat, kelsinlar) kabi ma'nolar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa, ta'kid, kuchaytirish, mubolag'a singari ma'nolar badiiy uslubda ko'proq ishlatiladi (Shu ko'zlar yulduzday abadiy kulsin, Bahor yo'llaringga to'shasin chechak. Zulfiya). Bu kabi holatlar ilmiy va rasmiy uslublarda ko'zga tashlanmaydi.

Uslubiy xoslanish kelishik qo'shimchalari variantlarining tanlanishida ayniqsa seziladi. Masalan, qaratqich kelishigining -(i)m (Axir hayajonlar o'zligim manim, / Mayli qalbingga ham ko'chsin hayajon. K.Bahromova), -n (Qanday ko'rkmam qizlar avlodin /Xassos didi va shoir dili. Zulfiya), -ing (Shavqimning shuhrasi boshing uza zar tora fido, / Ko'ngluming mahzani gul orazi gulnora fido. Joniy) tarzida qo'llanishi, qaratqich-qaralmish inversiyasi (Yarqirar ming bir bahor ko'rki kamolingda sening, /Oftobning aksi bor o'tlug' jamolingda sening. J.Jabborov), grammatik ko'rsatkichlarsiz kelishi (Qarshingda turibdi umrim bir kuni, / Mening uvoq she'rim mening dilporam. J.Kamol); tushum kelishigining -(i)n (Uchirsang-da ko'kka yurak kulin, / Achchig'lanmam senga nozli quyosh. Fitrat) va belgisiz shakli (Ulug' Hoqon, sendan so'rov shu erdi. / Elga sabr, bardoshdan bo'lak narsa ber. H. Xudoyberdiyeva); jo'nalish kelishigining – a (Tog'larning yuzi qora. Na ko'kat bor,

na lola. Ul taajjub etardi. Kunduzdag'i ahvola... H. Olimjon), - na (Soya tushsa nogahon bu jismi betob ustina. Navoiy), -qa (Hajri ashkim yetkurur har dam quyoshqa bir hayot. Navoiy), -g'a (Yo ilohi, emdi qilg'aysan bu bandangga nazar. Jandami, bir do'sh etib, kirdim yo'lungg'a darbadar. Mashrab) hamda belgisiz holatda bo'lishi (Maktab bordik - og'ir bo'lib qoldik daf'atan. A.Oripov); chiqish kelishigining –din tarzida ishlatalishi (Vatan sevmakdin ortiq Menga olamda shior bo'lmas. E.Vohidov), o'rın kelishigi qo'lllanganda u bilan egalik qo'shimchasi o'rtasida bitta "n" tovushining orttirilishi (Surxoningda anor guli kahrabodur, Yoboningda bodomlaring talk g'izodur, Qovun-tarvuz qursog'inda selitrodur, Kimlar seni bemor etdi, Tabiatingni xor etdi. O.Hojiyeva) shu uslubga xos xususiyatlar sanaladi. Badiiy nutq uslubida barcha so'z turkumlarining ishtirok etishi bu uslub uchun xarakterli xususiyatdir. Ammo ularning badiiy nutqda qaysi biri faol yoki nofaol ekanligini aniqlash maxsus statistic kuzatishni taqozo etadi.

Olmoshlarning uslubiy chegaralanishlari badiiy adabiyotda sezilarli o'rın tutadi. Kishilik olmoshlarini olaylik. Men, biz, sen, siz, ular singari olmoshlarining biri o'rnida ikkinchisi, ya'ni men o'rnida biz (-Ma, ich, amir, -dedi va kului. –Bilib qo'y, bizday amirul-mo'min qo'lidan yolg'iz sen may ichursen. O.Yoqubov), men o'rnida sen (Bilmaydikim... yo'q to'xta Muhammad Tarag'ay! Nechun sen shahzodadan ranjiysen. O.Yoqubov), siz o'rnida sen (Izn ayla! Ona. Darig' tutma lutfingni, Avval shuki, senga qalqon bo'la olmagan Bizni - noshud farzandlarni afu etgaysen. E.Samandar) qo'llanishi bu uslub uchun me'yor sanaladi.

Fe'lida badiiy uslubga xos belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- emoq-ermoq (Kecha ustod chaqirtirgan erkan. O.Yoqubov),
- kan-kin (Bo'lganmikin yer uzra bir ko'z Ko'rmak uchun seni osmonda. H.Olimjon),

- gin/-gil/-g'il (Qo'ygil u kunlarni eslatma menga. A.Oripov; Lekin hazar qilmag'il. O.Yoqubov),

- sin/-sun (Jonlarsening yuzginangdan aylansun. Fitrat) kabilar.

She'riy nutqning asosiy belgilaridan sanaladigan inversiya tufayli matnda ko'plab sintaktik qurilishlar majmui vujudga keladi. Ekspressiv-emosionallikni vujudga keltiruvchi vosita sifatida inversiya so'zlashuv va badiiy uslubga tegishlidir.

Badiiy uslub leksikasi ham alohida belgilarga ega. "...boshqa funksional stillar uchun xos bo'lgan leksika (masalan, ilmiy va rasmiy ish uslubiga xos bo'lgan terminlar) ning badiiy stilda keng qo'llanilmasligi va faqat badiiy stilda qo'llanuvchi maxsus vositalarning mavjudligi badiiy stilga xoslangan leksikani alohida ajratishga asos bo'ladi", deydi E. Begmatov. Abru, albat, armug'on, bazmaro, balqimoq, bahoriston, boda, bo'ston, gavharafshon, giryon, gulbahor, guliston, gulro', gulshan, debocha, dilafro'z, dilxona, dolg'a, durafshon, duto, jahonbaxsh, jondosh, jo'shmoq, jo'shqin, kabk, kuylamoq, libos, lolagun, lo'livash, maygun, mardonavor, mastona, mahvash, mahpora, moviy, moh, mujda kabi xoslangan so'zlar lug'atlarda poetizmlar nomi bilan yuritiladi. Alohida vazifaga egaligi bilan ajralib turuvchi ilmiy nutq uslubi haqida tilshunos A.J.Omonturdiyev to'g'ri ta'kidlaganidek, ilmiy uslubning asosiy vazifasi biror fikrni aniq ta'riflashga qaratilgan: " Nutq uslublari tizimini tashkil etuvchi vositalarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi ayni shu nutq uslubining asosiy vazifasidan kelib chiqadi. Masalan, ilmiy uslubning asosiy vazifasi — tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini, muayyan fikrning mantiqiy isbotini aniq ta'riflash va izohlashdan iborat. Ilmiy uslubning mantiqiy xarakteri uning leksik-frazeologik va grammatik xususiyatlarida o'z ifodasini topadi"⁶. Ilmiy uslub haqida "O'zbek tili stilistikasi" kitobida quyidagi fikrlar keltirilgan: "Ilmiy nutq uchun fikrni aniq, logik izchillik bilan ifodalash xarakterlidir. Bunda isbot va xulosa, konkret material va uni umulashtirish, sabab va natija munosabatlari o'zaro

⁶ Omonturdiyev A.J. Abduraimova Sh.I. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. –Toshkent, 2016 38-bet

bog'liq holda ifodalanadi”⁷. Bu fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, ilmiy uslubda fikrlar aniq, xulosa tugal tarzda beriladi, sabab-natija munosabati esa bog'liq tarzda bo'ladi. Bu esa ilmiy matnning mukammal shaklini hosil qiladi. Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi. Rasmiy uslubdagiga o'xshab gap tuzilishining odatdagи tartibi qo'llaniladi. Qo'shma gap faol ishlataladi. Darak gap asosiy mavqyeni egallaydi, so'roq va buyruq gaplar deyarli qo'llanilmaydi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tilimizdagi barcha uslublar qatori ilmiy uslub ham o'zining ma'lum vazifasini bajaradi va mana shu vazifani bajarish davomida yana ham yangi izlanishlarni payo qiladi. Sababi fanning turli sohalarida yoziladigan matnlarning har biri o'ziga xos o'rganishga, izlanishga muhtoj. Bu esa tilshunoslar oldiga katta vazifa yuklaydi. Matnga G'arb tilshunoslari tomonidan berilgan ta'rifda gaplarning ketma-ket bog'lanishi, gaplar zanjidi matnda asosiy jihat ekanligi, busiz matn yuzaga kela olamasligi ta'kidlab o'tilgan. Matnga ta'rif berilganda ikki jihatga asosiy e'tiborni qaratish joiz, bog'lanishlilik va yaxlitlik. Bu ikki jihat gaplar o'rtasida va gaplarning mazmuniy-grammatik birligi asosida yuzaga keladi. Tilshunoslikda matnning turli xususiyatlariga ko'ra har xil turlari mavjud. Matn tiplarini belgilashda nutq uslublarining ham ahamiyati katta. “Matn tiplarini belgilashdagi yana bir omil- nutqning funksional uslublaridir. Bu o'rinda matn lingvistikasining asoschilaridsn biri nemis tilshunosi R.Xarvegning “Uslub-bu matn tuzish usulidir” degan gapini esga olish mumkin. Ayni paytda I.R.Galperin ham stilistik vositalar bilan bir qatorda matnlarning tipologik tasnifi lingvostilistikaning predmeti bo'lishi zarur ekanligini ta'kidlaydi”. Bunda u albatta, har qanday matnning u yoki bu funksional uslubga xos bo'lishini nazarda tutgan. Tabiiyki, uslub matnning yashash tarzi, mavjudlik shaklidir”. Bu fikrlar bilan olim har bir uslubning

⁷ Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent. “O'qituvchi”, 1983 144-bet
www.pedagoglar.uz

o'ziga xos shakli va tartibiga ega matnlarning mabjudligini sanab o'tadi va uslublariga tayanga holda matnning quyidagi beshta turini keltirib o'tadi Kichik bir xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, badiiy uslubda adabiy til boyliklaridan foydalanibgina qolinmasdan, undagi ko'plab birliklarning tilda me'yorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib borishiga doimiy ravishda ta'sir o'tkazib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent. “O'qituvchi”, 1983 9-bet.
2. Omonturdiyev A.J. Abduraimova Sh.I. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati.
3. Shomaqsudov A. va b. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, “O'qituvchi”, 1983 10-bet
4. Shomaqsudov A. va b. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, “O'qituvchi”, 1983 13-bet
5. M.Sodiqova. Fe'l stilistikasi. Toshkent. “Fan” nashriyoti, 1975 6-bet
6. Omonturdiyev A.J. Abduraimova Sh.I. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. –Toshkent, 2016 38-bet
7. Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent. “O'qituvchi”, 1983 144-bet
8. Хамдамова, В. А. (2011). Формирование навыков обработки тканей учащихся на основе узбекских национальных традиций. *Молодой учёный*, (12-2), 144-145.